

## **Axborot olishga doir so'rovlarni ko'rib chiqish**

### *Davlat statistika qo'mitasi faoliyatiga doir ma'lumotlarni olish bo'yicha so'rovlarni ko'rib chiqish Reglamenti*

Ushbu Reglament O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risida"gi va "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida"gi qonunlariga muvofiq, Davlat statistika qo'mitasi faoliyatiga doir ma'lumotlarni olish bo'yicha so'rovlarni (keyingi o'rinlarda so'rov deb yuritiladi) ko'rib chiqish tartibini belgilaydi.

### **I. Umumiy qoidalar**

#### **1. Ushbu Reglament:**

jismoniy shaxslarning shaxsiga doir ma'lumotlardan foydalanishni ta'minlash tartibiga;

Davlat statistika qo'mitasi tomonidan ariza, taklif va shikoyatlarni ko'rib chiqish tartibiga;

Davlat statistika qo'mitasi o'z vakolatlarini amalga oshirishi munosabati bilan ular tomonidan davlat hokimiyati va boshqaruvining boshqa organlariga o'z faoliyati to'g'risida axborot taqdim etish tartibiga;

taqdim etilishining o'ziga xos xususiyatlari boshqa qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan, statistika organlarining faoliyatiga taalluqli bo'lgan axborotning ayrim turlariga nisbatan tatbiq etilmaydi.

#### **2. Ushbu Reglamentda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:**

axborotdan foydalanuvchi - davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyati to'g'risida axborot izlashni amalga oshirayotgan jismoniy yoki yuridik shaxs;

so'rov - Davlat statistika qo'mitasi faoliyati to'g'risida axborot taqdim etish haqida statistika idoralari va (yoki) ularning mansabdor shaxslariga yo'llanadigan og'zaki yoki yozma shakldagi (shu jumladan elektron hujjat shaklidagi) talab;

axborot xizmatlari - Davlat statistika qo'mitasi Axborot xizmati, hududiy statistika boshqarmalarning axborot xizmatiga mas'ul xodimlari;

devonxona - Davlat statistika qo'mitasi Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash va ijro intizomi nazorati boshqarmasi, hududiy statistika boshqarmalarning Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash ijro intizomi nazorati bo'limlari.

3. Axborotdan foydalanuvchilar O'zbekiston Respublikasining "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida"gi Qonunining 5-moddasida nazarda tutilgan axborotni olish uchun bevosita yoki o'z vakillari orqali so'rov bilan murojaat etishlari mumkin.

4. Axborotdan foydalanuvchilarning so‘rovi asosida ma’lumotlar Davlat statistika qo‘mitasi tomonidan ushbu Reglamentga muvofiq, og‘zaki yoki yozma (shu jumladan elektron hujjat shaklida) taqdim etiladi.

5. Davlat statistika qo‘mitasida so‘rovlarni qabul qilish tartibi haqidagi ma’lumot qo‘mitaning rasmiy veb-saytiga joylashtiriladi.

## **II. So‘rovga qo‘yiladigan talablar**

6. Jismoniy shaxsning so‘rovida uning familiyasi, ismi, otasining ismi, yashash joyi to‘g‘risidagi ma’lumotlar ko‘rsatilgan va so‘rovning mohiyati bayon etilgan bo‘lishi kerak. Yuridik shaxsning so‘rovida yuridik shaxsning to‘liq nomi, uning joylashgan manzili (pochta manzili) to‘g‘risidagi ma’lumotlar ko‘rsatilgan, so‘rovning mohiyati bayon etilgan bo‘lishi kerak.

7. Yozma so‘rovlar axborotdan foydalanuvchining shaxsiy imzosi bilan tasdiqlangan bo‘lishi kerak. So‘rovni shaxsiy imzo bilan tasdiqlash imkoniyati bo‘lmagan taqdirda, u qo‘shimcha ravishda tuzuvchining ham familiyasi, ismi, otasining ismi qo‘yilgan holda, uning imzosi bilan tasdiqlangan bo‘lishi kerak.

Axborotdan foydalanuvchini identifikatsiyalash imkoniyatini beradigan ma’lumotlar ko‘rsatilmagan so‘rov anonim hisoblanadi va ko‘rib chiqilmaydi.

8. Og‘zaki so‘rov kiritayotgan jismoniy shaxs ushbu Reglamentning 6-bandi birinchi xatboshisida qayd etilgan ma’lumotlarni, shuningdek o‘z telefon raqamini ma’lum qilishi kerak.

Yuridik shaxs nomidan og‘zaki so‘rov kiritayotgan mansabdor shaxs ushbu Reglamentning 6-bandi ikkinchi xatboshisida qayd etilgan ma’lumotlarni, shuningdek lavozimi, familiyasi, ismi, otasining ismi va ish telefon raqamini ma’lum qilishi kerak.

Ushbu badda qayd etilgan ma’lumotlar to‘liq bayon etilmagan hollarda, og‘zaki so‘rovlarni ko‘rib chiqish rad etilishi mumkin.

9. Elektron hujjat shaklidagi so‘rovlar (bundan buyon matnda elektron so‘rov deb yuritiladi) O‘zbekiston Respublikasining “Elektron hujjat aylanishi to‘g‘risida”gi Qonuni talablariga muvofiq tayyorlangan va majburiy rekvizitlarga ega bo‘lgan taqdirda ko‘rib chiqiladi.

10. Belgilangan tartibda kiritilgan so‘rov ko‘rib chiqilishi shart.

## **III. Yozma va elektron so‘rovlarni qabul qilish va ro‘yxatdan o‘tkazish**

11. Davlat statistika qo‘mitasiga kiritilgan yozma va elektron so‘rovlar Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash va ijro intizomi nazorati boshqarmasi tomonidan qabul qilinadi va ro‘yxatga olinadi.

## **IV. Og‘zaki so‘rovni qabul qilish va ro‘yxatdan o‘tkazish**

12. Davlat statistika qo‘mitasida og‘zaki so‘rovlar Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash va ijro intizomi nazorati boshqarmasi hamda ishonch telefonlari orqali qabul qilinadi.

So‘rov kiritayotgan jismoniy yoki yuridik shaxs ushbu Reglamentning 8-bandida qayd etilgan ma‘lumotlarni to‘liq taqdim etadi.

13. Reglamentda axborot xizmatlariga yuklatilgan vazifalar qo‘mita rahbariyati tomonidan belgilanadigan tarkibiy tuzilmalar tomonidan amalga oshiriladi.

#### **V. So‘rovni ko‘rib chiqish muddatlari va tartibi**

14. Axborotdan foydalanuvchining Davlat statistika qo‘mitasida ro‘yxatdan o‘tkazilgan kundan e‘tiboran ko‘pi bilan o‘n besh kunlik muddatda ko‘rib chiqiladi.

Ommaviy axborot vositasining axborot olishga doir, shuningdek Davlat statistika qo‘mitasi mansabdor shaxslarining intervyusini tashkil etish to‘g‘risidagi so‘rov ko‘pi bilan yetti kunlik muddatda ko‘rib chiqiladi.

15. Agar axborotdan foydalanuvchining so‘rovini ko‘rib chiqish Davlat statistika qo‘mitasining vakolatlariga kirmasa, so‘rov so‘ralayotgan axborotni taqdim etish vakolatiga kiritilgan organga yuboriladi, axborotdan foydalanuvchi esa, ro‘yxatdan o‘tkazilgan kundan e‘tiboran uch ish kuni ichida xabardor qilinadi.

Agar Davlat statistika qo‘mitasi olingan so‘rov bo‘yicha davlat hokimiyati va boshqaruvining boshqa organlari vakolati to‘g‘risidagi ma‘lumotlarga ega bo‘lmasa, foydalanuvchiga so‘rov ro‘yxatdan o‘tkazilgan kundan e‘tiboran uch ish kuni ichida javob yuboradi.

16. Rasmiy nashrlarda, ommaviy axborot vositalarida e‘lon qilingan (chop etilgan) yoxud rasmiy veb-saytlarda joylashtirilgan axborot so‘ralganda, Davlat statistika qo‘mitasi so‘rovga beriladigan javobda so‘ralayotgan axborot e‘lon qilingan rasmiy nashrning, ommaviy axborot vositasining nomi, chop etilish sanasi hamda raqamini va (yoki) so‘ralayotgan axborot joylashtirilgan rasmiy veb-saytning elektron manzili ko‘rsatilgan holda, havola berilishi mumkin.

17. So‘rov rad etilgan taqdirda, axborotdan foydalanuvchiga asoslantirilgan javob yuboriladi.

#### **VI. Yakuniy qoidalar**

18. Ushbu Reglament talablarini buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.

Ushbu Reglament O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2018-yil 28-maydagi 56-son buyrug‘i hamda O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi tizimida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to‘g‘risidagi nizom asosida ishlab chiqilgan.